



## QANOTLI IBORALARNING MODELLIK XUSUSIYATI

**Isakova Guzalxon Ne'matovna,**  
*filologiya fanlari doktori, dotsent*  
*O'zbekiston davlat san'at va*  
*madaniyat instituti*

**Annotatsiya.** *Qanotli so'zlar milliy va dunyo madaniyatida alohida o'ringa ega bo'lib, ular sayqallangan shaklda mashhur faylasuf, olim, yozuvchi va davlat arboblarning fikrlaridir. Ular asrlar osha tildan-tilga o'tib, nutqimizni bezab kelayotgan ma'nodor til birligi sanaladi. Quyidagi maqolada qanotli iboralarning model sifatidagi roli, ular yordamida muallifga xos yangi iboralarning hosil qilinishi va modellikning turlicha xususiyatlari borasida so'z yuritiladi.*

**Tayanch so'zlar:** *qanotli ibora, model, komponentlarni almashtirish, semantik o'zgarish, ma'no kuchayishi, komik effekt, obrazlilik.*

**Аннотация.** *Крылатые выражения занимают особое место в национальной и мировой культуре, они считаются отшлифованными художественными выражениями известных философов, ученых, писателей и государственных деятелей. Также они являются содержательной языковой единицей, которые переходя из языка в язык украшают нашу речь. В данной статье рассматривается роль крылатых выражений как модели, создание с их помощью новых авторских выражений и различные особенности моделирования.*

**Ключевые слова:** *крылатое выражение, модель, замена компонентов, семантическое изменение, усиление смысла, комический эффект, образность.*

**Abstract.** *Winged expressions have a great role in national and world culture. They are considered to be artistic expressions of famous philosophers, scientists, writers and statesmen. They are the word combinations which make our speech more meaningful and bright. This article examines the role of winged expressions as a model, the creation of new authors' expressions with their help, and various features of modeling.*

**Key words:** *winged expression, model, replacement of components, semantic change, strengthening of meaning, comic effect, imagery.*

**Kirish.** O'tgan asrning boshlarida frazeologiyani o'rganish keng tus oldi. Tilshunoslar barcha obrazli ifodalar va iboralar ustida qizg'in ish olib bordilar. Lekin qanotli iboralar barcha qo'llanmalarda ajratilmasdan qorishib qo'llanaverdi. Ko'plab frazeologlar qanotli iboralarga frazeologizmlar kabi emas, balki estetik yoki badiiy hodisa sifatida qarashgan. Faqatgina A.M.Babkin, L.I.Royzenzon, Y.A.Gvozdarev, V.M.Mokiyenko hamda boshqa lingvomamlakatshunoslik va etimologik lug'atlar tuzuvchilari o'z ishlarida qanotli so'z va iboralarni noma'lum frazeologizmlar manbasi sifatida ko'rib chiqishdi.[2; 6; 11; 12] Shu asnoda qanotli birliklarni o'rganish rivojlana bordi.

Tildagi frazeologik fondni tashkil qiluvchi qanotli iboralar asl iboralarni tavsiflovchi jarayonlarga o'xshash jarayonlarni boshidan kechiradi. Barqaror og'zaki komplekslarning variantlilik zamonaviy tilshunoslar tomonidan umuman inkor etilmaydi, balki keng qamrovda o'rganilmoqda. Frazeologiya bilimlarning maxsus tarmog'i sifatida paydo bo'lgan yillarda, frazeologik model tuzish g'oyasining o'zi



absurd bo‘lib ko‘ringan. Frazeologik birlikda semantik nuqtai nazardan ham, tuzilish nuqtai nazardan ham o‘zgacha hodisani anglashgan, shuning uchun frazeologiya sohasidagi har xil anomaliyalar bilan faol qiziqishgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Frazeologik darajada model tuzish O.I.Moskalskayaning “Грамматической идиоматизм и синтагматика” nomli maqolasida va N.N.Amosovanning “Основы английской фразеологии” (1963) monografiyasida aks etgan. I.I.Chernisheva o‘zining “Фразеология современного немецкого языка” nomli doktorlik dissertatsiyasida “Frazeologiyada struktur-semantik modelni tuzish imkonsiz vazifadir”, deb ta’kidlagan. V.N.Teliya: “Frazeologik iboralar – umumiy qabul qilingan fikrlarga ko‘ra model bo‘lmaydigan tuzilmalarni anglatadi”, deb fikr bildiradi. [14, 60]

Ammo XIX asrning 60-yillaridan keyin maydonga kelgan ko‘plab tadqiqotlarda frazeologik model haqida turlicha fikrlar yuritilgan. [1; 9; 13; 16; 17]

Frazeologik model bo‘lishlik haqidagi aniq qadamlarni L.Y.Kostyuchukning “Устойчивые словосочетания в древнерусском языке” (1964) nomli nomzodlik ishida ko‘rish mumkin. Ushbu tadqiqotda barqaror birliklarning paydo bo‘lish jarayonlari umumiy va xususiy modellarga ajratilgan holatda ko‘rsatilgan. G.A.Selivanov “Фразообразование в его отношении к структурному развитию языка” (1976) nomli maqolasida frazeologik seriyalar haqida, cheksiz tarkibga imkon beradigan modellardan foydalanish haqida yozadi. Shuningdek, S.G.Gavrin frazeologik modelni “Bir xil turdagi barqaror birliklar hosil qiladigan o‘ziga xos mexanizm”, deb tushunadi. [3, 58-75]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qanotli iboralar ta’limoti leksikologiya, frazeologiya, aforistika, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik fanlari bilan kesishadi. Badiiy, publitsistik va ilmiy matnlardan olingan sitatalar, san’at asarlaridan olingan parchalar bilan to‘ldirilgan qanotli birliklar fondi “noma’lum” (markerlanmagan) leksemalar, “noma’lum” frazeologik birliklar, “noma’lum” barqaror birliklarni to‘ldirish manbai hisoblanadi.

Qanotli iboralar haqidagi ta’limotning paydo bo‘lishi – bizning nazarimizda zamonaviy tilshunoslikdagi alohidalik ko‘rinish sifatida gavdalanmoqda. “Qanotli so‘zlar” terminining majoziyliigi ko‘p yillar mobaynida tilshunoslarning e’tiborini tortmadi va ushbu til birligi bilan asosan filolog-adabiyotshunoslar shug‘ullanishdi.

Aytish mumkinki, qanotli iboralar tilning fenomeni bo‘lib, lingvistik jihatdan chuqur o‘rganilishi muhimdir, ya’ni A.M.Babkinning qanotli birliklar “lingvistik jihatdan deyarli o‘rganilmagan”, [2, 108] degan qarashi hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Tilshunoslikdagi barqaror birliklarning asosiy qismi, shu jumladan qanotli iboralar ham erkin so‘z birikmalari asosida o‘zgaruvchan modellar



bo'yicha qurilgan. Ammo ko'plab sintaktik modellardan barqaror birliklarni yaratish uchun til vakillari intuitiv ravishda umumlashgan-obrazli, aforistik va boshqa maxsus ma'noni ifoda etishga qodir bo'lganlarini tanlab oladilar.

Frazeologik birliklarga bo'lgan munosabat kabi, qanotli iboralar fondiga ham ko'plab mustaqil so'z qo'shilmalarini yarata oladigan ularning strukturasi haqida gapirish o'rinlidir. Qanotli iboralar frazeologik birliklar singari – faqatgina ushbu ko'rinishlarning o'ziga xos namoyon bo'lishidir. Masalan, sifat+ot modeli bo'yicha o'zgaruvchan iboralarni tuzish mumkin va shu bilan birga: *Vieux Adam, Médiocrité dorée, Age d'or, Toison d'or* qanotli iboralari faqat ushbu ko'rinishdagina mavjuddir.

Ayni paytda frazeologik iboralar kabi qanotli iboralar maxsus modellarga muvofiq yaratilishi mumkin, ularni S.G.Gavrin va V.M.Mokiyenkolar “frazeologik ibora”, deb atashgan. Frazeologik model va frazeologik model bo'lishlik tushunchasi sintaksis doirasidan tashqariga chiqadi, shuning uchun frazeologik birlik va qanotli iboralar alohida-alohida shakllangan til birligidir. Frazeologik model odatdagi sintaktik modelni tavsiflovchi grammatik konstantalardan tashqari semantik konstantalarni ham o'z ichiga oladi.

Bu borada S.G.Gavrin: “Frazeologik (yoki komplikativ) model – bu semantik (yoki semantik va struktur-semantik) konstantalarning o'zgarmas birligi bo'lgan va mustaqil lisoniy mexanizm vazifasini bajaradigan, shu asosda bir xil turdagi komplikativ kombinatsiyalar ishlab chiqariladigan umumlashtirilgan mavhum leksik-semantik qurilish. Konstantalar deganda ushbu modelga muvofiq yaratilgan barcha lingvistik birliklarda doimo amalga oshiriladigan modelning har qanday konstruktiv komponenti (grammatik, semantik) tushuniladi. Konstanta sifatida turli xil til elementlari: leksemalar, morfemalar, semalar, grammatik ma'nolar, grammemalar, yordamchi so'zlar, grammatik pauzalar, leksik ma'nolar chiqishi mumkin”, [3, 68-69] deb yozadi.

Struktur-semantik model bo'lishlik shakl va mazmun orasidagi uyg'unlikni saqlaydigan yangi, odatda teng, barqaror og'zaki komplekslarni yaratishni nazarda tutadi. V.M.Mokiyenko ushbu hodisaning realligini noma'lum frazeologik birliklar orasida diaxronik va sinxronik aspektlarda to'laqonli isbotladi va S.G.Gavringa nisbatan frazeologik modelga lo'nda va aniq ta'rif berdi. Frazeologik model deganda u “barqaror birliklarning struktur-semantik invarianti (o'zgarmasligi) ularning shakl va semantikasining nisbiy barqarorligini sxematik tarzda aks ettiruvchi”, [11, 53] deb tushunadi.

Qanotli iboralarda model bo'lishlik noma'lum frazeologizmlar fondiga qaraganda boshqacharoq namoyon bo'ladi va bu qanotli birliklar semantikasining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq: ularning manba, muallif, tarixiy voqea bilan



aloqasi qanotli iboraning tez-tez qo'llanishi natijasida susayishi yoki umuman yo'q bo'lib ketishiga olib kelishi ham mumkin.

Anglanadiki, model bo'lishlik ba'zida ko'p takrorlanishi natijasida o'zining sofligini va jozibasini yo'qota boradi va badiiy frazalar hamda obrazlarni ifodalaydigan yangi frazeologik iboralarning paydo bo'lishiga olib keladi. V.V.Vinogradov ushbu "individual badiiy ijod qoldiqlari"ni "klishe" deb ataydi. Shuningdek, "Madaniyatsizlik yoki sust ta'limli ijtimoiy muhitda bunday klishe samarali ko'rinishi mumkin. Aslida esa, ular shunchaki original uslubni yoki notiqlikning kamchiliklarini berkitib turadigan shartli bezakdir", deb ta'kidlaydi muallif. [15, 144] V.L.Arxaevskiy modeldan yuzaga keladigan variantlarni seriyalar deb atagan. Shuning uchun seriyalilik, ya'ni yangi yaratilgan bir nechta variant frazeologik modelning o'ziga xos ko'rinishi, ushbu jarayonda qanotli iboralarning ma'nolarida xiralashish kuzatilishi mumkin.

Qanotli iboraning barqarorligi va seriyaliligi orasida yaqin o'zaro bog'liqlik mavjud va ularning har biri ham seriyali in'ikos etishlikka qodir emas. Frazeologik variantlarning paydo bo'lishini oldindan belgilaydigan qator omillar mavjud. Bu qanotli iboraning strukturasi, uning semantikasi, odatiy qo'llanilish ko'lami va qanotli iboraning tez-tez qo'llanish natijasida yuzaga keladigan bir qoliplik darajasidir.

Oddiy sitata yoki asar parchasi qanotli iboraga aylangunga qadar ma'lum yo'lni bosib o'tadi. Manba yoki muallif bilan bog'liqlik qanotli iboraga qo'shimcha semantik imkoniyat beradi, unga aloqa o'rnatuvchi qiymat beradi. Oddiy sitatadan frazeologik seriyalilik (ketma-ketlik)ka qadar bo'lgan yo'lda turlicha o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. U har doim valentlik va umumlashma tomon qanotli ibora semantikasining yangi semalar harakati bilan birga amalga oshadi.

Aytish mumkinki, semantik o'zgarish kommunikativ nuqtai nazardan eng muhim bo'lgan, aniq ma'lumotga ega komponent o'rnida sodir bo'ladi. Shu bilan birga qanotli ibora modeli ko'plab leksemalar uchun ochiq bo'lishi ham kuzatiladi.

Masalan, fransuz tilida ko'proq lotin shaklida qo'llanadigan, "oson va tezda yuz bergan muvaffaqiyat"ni ifodalaydigan *Veni, vidi, vici*, ya'ni *Keldim, ko'rdim, yengdim* (fr. Je suis venu, j'ai vu, j'ai vaincu) qanotli iborasining model sifatida olinganligini kuzataylik:

V.Gyugoning shu nomli she'ri mavjud. [8] Muallif iboradagi "vici" komponenti o'rnida "vixi"ni qo'llaydi, ya'ni *Veni, vidi, vixi* (*Keldim, ko'rdim, yashadim*). Muallif mazkur she'rni qizining bevaqt vafotidan so'ng, g'amga botib yozgan. Yashashdan ma'no qolmaganligini *vixi* (yashab bo'ldim) komponenti orqali ifodalaydi.

"Les aventures d'Asterix" komiksida ushbu qanotli iboraning "*Veni, vidi et j'ai compris*", ya'ni "*Keldim, ko'rdim va tushundim*"; "*Vini, vidi et toujours pas vici*",



ya'ni “*Keldim, ko'rdim va har doim ham yengmadim*”; “*Veni, vidi et j'en crois pas mes yeux!*”, ya'ni “*Keldim, ko'rdim va ko'zlarimga ishonmayapman*” singari shakllari kuzatiladi. [5] Bu o'rinda iboradagi *yengdim* komponenti birinchi misolda *tushundim*, ikkinchi misolda *har doim ham yengmadim*, uchinchisida esa *ko'zlarimga ishonmayapman* tarzida o'zgartirib qo'llangan.

A.A.Milnning “Winnie l'Ourson” multfilmida ushbu qanotli ibora “*Je suis venu, j'ai scié, j'ai martelé*”, ya'ni “*Keldim, arraladim, bolg'aladim*” shaklida qo'llangan. [10]

Yumorist P.Deproj iborani: “*Veni, vidi, vici: je suis venu nettoyer les cabinets*”, ya'ni “*Keldim, ko'rdim, yengdim: hojatxonalarni tozalashga keldim*” shaklida [18] yoki rep-qo'shiqchi Dyamsning “*Si c'était le dernier*” nomli qo'shig'ida ushbu iboraning “*Je suis venu, j'ai vu, j'ai vaincu puis j'ai fait marché arrière*”, ya'ni “*Keldim, ko'rdim, yengdim so'ngra orqaga qaytdim*” shaklida qo'llanganligini ko'rish mumkin. [4]

Shuningdek, Gendelning “Yuliy Sezar Yegiptda” nomli operasida Kleopatra Sezarga: “*Vous êtes venu, vous avez vu, vous m'avez conquise*”, ya'ni “*Keldingiz, ko'rdingiz, meni zabt etdingiz*” tarzida qo'llaganligini ko'rish mumkin. [7]

Faylasuf R.Dekartning *Je pense, donc je suis*, ya'ni *Fikrlayapman, demak hayotman* qanotli iborasi model vazifasida olinganligi va undan muallifga xos turlicha yangi iboralar hosil qilinganligi ko'rinadi:

Korin Buasiyer, yozuvchi, faylasuf: *J'aime, donc je suis – Sevyapman, demak, hayotman*;

Jak Ruksel, animator: *Je pompe donc je suis – Qimirlayapman, demak, hayotman*;

Klod Filds, aktyor, komik: *Je bois donc je suis – Ichyapman, demak, hayotman*;

Ivan Gonsalves: *Je ressens donc je suis – His qilyapman, demak, hayotman*;

Jak Shtenberg, fantastik yozuvchi: *J'oublie tout, donc je suis – Hammasini unutmadi, demak, hayotman*;

Jilber Sesbron, yozuvchi: *J'aime, donc je suis. Dès que je cesse d'aimer, je cesse d'être - Sevyapman, demak, hayotman; Sevishdan to'xtashim bilan, hayotim ham to'xtaydi*;

Viktor Enri, musiqachi: *Je peux donc je suis. Mais qui suis-je? Être et avoir, drôle de binôme – Uddalayapman, demak, hayotman; Lekin men kimman? Bo'lmoq va ega bo'lmoq, kulgili juftlik*;

Daniyel Kunapt, futbolchi: *Je pense donc je suis, mais quand je ne pense pas alors? – Fikrlayapman, demak, hayotman; Lekin fikrlamaganimdachi?* [19]

**Xulosa.** Mualliflar tomonidan model sifatida olingan qanotli iboralarning komponentlarni almashtirish usuli turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Masalan,



qanotli ibora komponentini antonim bilan almashtirish; ma'nodosh yoki ma'no jihatdan komponentga mos so'z bilan almashtirish; tematik yaqin so'z bilan almashtirish; qanotli iboraning bir yoki bir nechta komponentlarini umuman begona so'z bilan almashtirish shular jumlasidandir. Bu ularga ma'lum stilistik natijaga erishish, obrazni yanada jonlantirish, qanotli ibora yoki butun kontekstning ma'nosini kuchaytirish, komik effekt hosil qilish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu usul muallifga xos yangi iboralar hosil qilish va nutqni boyitish jihatlari bilan xarakterlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке. – Ростов-на-Дону: Изд-во РГУ, 1964. – С. 177.
2. Бабкин А.М. Русская фразеология, ее развитие и источники. – Ленинград: Наука, 1970. – 264 с.
3. Гаврин С.Г. Проблема фразеологического моделирования // Проблемы образования фразеологических единиц. – Тула: Тульский пед.инс-т им. Л.Н.Толстого, 1976.
4. Georgiades M. Album: S.O.S. Chanson: “Si c’était le dernier”. 2009.
5. Goscinny R. (scénariste), Uderzo A. (dessinateur). Les aventures d’Astérix. Comix. Edition d’Albert René, 1986.
6. Гвоздарев Ю.А. Пусть связь речений далека. Очерки по русской фразеологии. –Ростов-на-Дону: Рост. книж. изд-во, 1982. –208 с.
7. Handel G.F. Opera Giulio Cesare in Egitto. –Paris: Théâtre Champs Élysées, 2022.
8. Hugo V. Les Contemplations. –Paris: FOLIO, 2010. –448 p.
9. Жуков В.П. Фразеологизм и слово. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ленинград, 1967;
10. Milne A.A. Winnie l’Ourson. Bande dessinée. Edité par Gaillmard-Jeunesse, 2015.
11. Мокиенко В.М. Славянская фразеология. 2-е изд., испр., доп. –Москва: Высш. шк., 1989. –288 с.
12. Ройзензон Л.И. К теории крылатых слов // Актуальные проблемы лексикологии: Тез. докл. лингв. конф. 5-8 мая 1967 г. –Новосибирск, 1967. – С. 130-132.
13. Ройзензон Л.И. Фразеологизация как лингвистическое явление // Труды СамГУ. 1961.
14. Телия В.Н. Что такое фразеология? –Москва: Наука, 1966. – С. 60.
15. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // В.В. Виноградов. Избр. труд. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. –С. 144.
16. Земская Е.А. Об одной новой модели фразеологического сочетания // Вопросы культуры речи. Сборник научных трудов института русского языка. –Москва: Изд-во АН СССР, 1963. –С. 104-110.



- 17.Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. –Москва:  
Высшая школа, 1963. –С. 99-123;  
18.<https://citations.ouest-france.fr/>  
19.<https://citation-celebre.leparisien.fr>

